



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

A. Amini<sup>1</sup>

<sup>1</sup>TerDU, O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi

## SHIMOLIY AFG'ONISTON O'ZBEKLARI NUTQIDAGI DEHQONCHILIKKA OID HARAKAT FE'LLARINI IFODALOVCHI BIRLIKLAR

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Shimoliy Afg'oniston o'zbeklari nutqidagi harakat fe'llarining O'zbekistonda yaratilgan "O'zbek tilining izohli lug'ati"da berilishi hamda mazkur lug'atnomada kiritilmagan va hozirgi kunda Shimoliy Afg'onistonda yashovchi o'zbeklar nutqida ishlatiladigan harakat fe'llari yuzasidan ma'lumot beriladi.

**Kalit so'zlar:** Dehqon, Bug'doy, Yer, Urug', don, suv tushunchalarini ifodalovchi birliklar.

Til ijtimoiy hodisa bo'lganligidan zamon bilan yonma-yon o'sib, rivojlanib boradi. O'sish va rivojlanish asosan tilning lug'at tarkibida o'z ifodasini topadi. Demak, texnologik taraqqiyot tillarga yangi-yangi tushuncha va leksemalarni olib kiradi. Bunda makon va zamon omillari birga amal qiladi.

Shimoliy Afg'onistonda yashovchi o'zbeklar va O'zbekiston o'zbeklari nutqidagi dehqonchilikka oid harakat fe'llarini bir-biriga o'xshash va farqli tomoni mavjud. O'xshashlik borligining sababi, avvalda ikkala mamlakat xalqlari bitta davlatni tashkil qilganlar, bitta hukmdorga bo'ysunishgan, eng asosiysi, Shimoliy Afg'onistonda yashovchi xalq bilan O'zbekistonda yashovchi xalqlar bir tilda so'zlashganlar. Ayrim leksemalarning farqlanishi sababi esa, orada bir necha o'n yil mobaynida ikkala mamlakat xalqlarining bir-birdan uzoqlashishidir. Shimoliy Afg'onistonda yashovchi o'zbeklar nutqida, dariy hamda ingliz tillarining ta'siri kuchli bo'lgan bo'lsa, O'zbekistonda rus tili ta'siri ustuvorlashgan. Bu bitigda Shimoliy Afg'oniston o'zbeklari nutqidagi harakat fe'llarining O'zbekistonda yaratilgan "O'zbek tilining izohli lug'ati"da berilishi hamda mazkur

lugʻatnomada kiritilmagan va hozirgi kunda Shimoliy Afgʻonistonda yashovchi oʻzbeklar nutqida ishlatiladigan harakat feʻllari yuzasidan maʼlumot beriladi.

**Sugʻarmoq** - ekilgan ekinlardan yaxshi hosil olish hamda ularning qurib qolishini oldini olish maqsadida, ekin ekilgan yerlarni sugʻorishdilar. “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da “ekin maydonlarini, oʻsimliklarni suv bilan taʼminlamoq, suv qoʻymoq. Ekin sugʻormoq<sup>1</sup>” deb izohlanadi. Mazkur lugʻatnomada berilgan izohga qaraganda shunday fikr bildirishimiz mumkin: sugʻarmoq leksemasi dehqonchilikka xos harakat feʻllaridan biridir.

**Agʻdarmoq / ogʻdarmoq** – yerga ekin ekishdan oldin, yerni yumshatish va ekilgan ekinning ildizi yaxshi joylashishi hamda yaxshi hosil berishi uchun, traktor yoki hoʻkkizlar yordamida yerning agʻdarilishi. Mazkur soʻz “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da izohlanmagan .

**Ekmoq** –yerdan hosil olish maqsadida, bugʻdoy, arpa, sholi va hokozo kabilarning urugʻi yoki koʻchatini yerga tiqish. “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da „oʻsimlik urugʻini, urugʻlikni yerga tashlamoq, sepmoq, tikmoq; oʻsimlik tupini, koʻchatini oʻtqazmoq<sup>2</sup>“ deb izohlanadi. Mazku leksemadan ikkala tomon oʻzbeklari ham, bir xil maʼnoda foydalanadilar.

**Galagov** – noʻxat, arpa, bugʻdoy, shularga oʻxshash boʻlgan barcha dukkakli mahsulotlarning, donini poyasidan ajratish uchun, hoʻkkizlardan foydalangan holda, boʻlib oʻtadigan dehqonchilikka xos jarayon. “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da “sigir galasi. Hayvonlar toʻdasi<sup>3</sup>” deb izohlanadi. Bu leksema fors –tojik tillaridan kirib kelgan ( gala-koʻp, gov-sigir ) degan maʼnolarni anglatadi. Mazkur jarayon asosan hoʻkkiz orqali amalga oshirilgani uchun, galagov atamasi shimoliy Afgʻonistonda shu jaryonga xos soʻzga aylangan.

**Gʻalbur qilmoq** – bugʻdoy doni bilan aralashgan, bugʻdoy donidan kichik qismini yaratish uchun boʻlib oʻtadigan gʻallachilikka oid jarayon. Bu leksema “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da izohlanmagan.

**Chigʻil qilmoq** – bugʻdoy donini begona donlardan ajratish, shu jumladan aralashib qolgan poxollarni ajratish maqsadida boʻlib oʻtadigan jarayondir. Mazkur leksema lugʻatnomada izohlanmagan.

**Sovurmoq** – bugʻdoy, zira, zigʻir kabi oʻsimliklarning donini tuproqdan ajratish uchun boʻlib oʻtadigan jarayon. “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da shunday “shamolda shopirib tozalamoq, shopirmoq. Oʻt ishi – qovurmoq, el ishi –sovurmoq. Maqol<sup>4</sup>” deb izohlangan. Mazkur leksema shimoliy Afgʻoniston oʻzbek shevalarida “savurmoq” tarzida talaffuz qilinadi.

**Oʻrmoq** – oʻsimliklardan: arpa, bugʻdoy, zigʻir kabilarning, pishganidan keyin, ularning doni va poyasidan foydalaniladi hamda ularning bir joyga toʻplashlari uchun, boʻlib oʻtadigan jarayon. “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da “gʻalla oʻsimligi, oʻt beda va boshqa oʻsimlikni chalgʻi, oʻroq, kambayn va shu kabilar bilan qirqib olmoq. Arpa oʻrmoq<sup>5</sup>” deb izohlanadi. Mazkur leksema oʻzbekcha boʻlganligi uchun ikkala tomonda ham bir xil maʼnoda ishlatiladi.

<sup>1</sup> “Oʻzbek tilining izohli lugʻati” 5 jildli. –Toshkent: Oʻzbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006.

<sup>2</sup> Oʻsha kitob. –Toshkent: Oʻzbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006.

<sup>3</sup> Oʻsha kitob. –Toshkent: Oʻzbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006.

<sup>4</sup> “Oʻzbek tilining izohli lugʻati” 5 jildli. –Toshkent: Oʻzbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006.

<sup>5</sup> Oʻsha kitob. –Toshkent: Oʻzbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006.

**Qazmoq** – arig‘dan yaxshi suv o‘tishi hamda arig‘ning yo‘qolib ketmasligi uchun, dehqonlar tomonidan, qaziladigan arig‘lar. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “qazilmoq, kovlamoq<sup>6</sup>” deb izohlanadi. Dehqonchilikda qazmoq leksemasini eshitganda asosan ariq qazmoq ko‘z oldimizga keladi. Shimoliy Afg‘onistonda ariq qozmoq deyiladi, ya‘ni qazmoq leksemasi ikkala tarafda bir xil ma‘no, lekin talaffuzi bochqacharoq.

**Trishal qilmoq** – bug‘doy, arpa kabi o‘simliklarning, o‘rib olinganidan keyin, donini poyasidan ajratish uchun, bo‘lib o‘tadigan jarayon hamda mazkur qurilmaning nomi. Mazkur atama “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da izohlanmagan.

**To‘kmoq** – bug‘doy yoki arpa mahsulotlaridan bo‘lmish somonning, somonxonaga to‘kish jarayoni. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “suyuq yoki sochiluvchan narsalarni idishdan tushirmoq, sochilishiga yo‘l qo‘ymoq<sup>7</sup>” deb izohlanadi. Dehqonchilikda to‘kmoq deganda, asosan somon, yoki g‘alla donlarini, omborga ( somoxona, bug‘doyxona ) to‘kmoq tushuniladi.

**Joylamoq** – dehqonchilik mahsulotlari yanchiliganidan so‘ng, ularning daladan, uyga olib borish uchun, qop yoki bo‘jilarga joylashtirilishiga nisbatan mazkur atama qo‘llanadi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “batartib terib, taxlab qo‘ymoq. Sig‘dirmoq. Qo‘ymoq<sup>8</sup>” deb izohlangan. Joylamoq leksemasi shimoliy Afg‘oniston o‘zbek dehqonlari nutqida asosan, g‘alla mahsulotlarini qopga joylashtirish ma‘nosida yuritiladi.

**Kespant bermoq** – donli o‘simliklar yanchilib bo‘lganidan so‘ng, mazkur mahsulotlar donidan, xirmon oldida turgan odamlarga ma‘lum miqdordagi o‘lchovga beriladigan, dehqonchilikka xos jarayon. Mazkur atama “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da izohlanmagan.

**Qo‘sh** — omochga qo‘shilgan bir juft (ba‘zan bitta) ho‘kiz yoki ot. O‘rta Osiyo xonliklarida bir juft ho‘kiz yordamida haydab ekish mumkin bo‘lgan yer maydoni ham odatda “qo‘sh” deyilgan. Bunda bug‘doy yoki arpa ekish uchun haydalgan yer taxminan 6-7 ga, paxta uchun esa 2-3 gektarga teng bo‘lgan. Har bir qo‘sh yerdan olingan yer solig‘i “qo‘sh puli” deb atalgan.

Mazkur soliqning hajmi va qaysi shaklda undirilishi har yerda turlicha bo‘lib, u ekilgan ekin navi, yetishtirilgan hosil hajmi, yer sifati va boshqa omillarga bog‘liq bo‘lgan. Turkiston ASSR va keyinchalik O‘rta Osiyo respublikalarida tuzilgan dehqonlarning ommaviy tashkiloti esa “Qo‘shchi” uyushmasi (soyuzi) deb atalgan.

**Qo‘sh haydamoq** – traktor yoki ho‘kkizlar yodamida maxsus asboblar bilan yer ag‘darish jarayoni. Bu leksema lug‘atnomada izohlanmagan.

**Xishova / g‘ishova** – “daraxt ostidan va shoxlari orasidan o‘sib chiqqan ortiqcha shoxlarini olib tashlash yon-atrofidan o‘sib chiqqan giyohlardan tozalash”.<sup>9</sup> Zira, paxta kabi o‘simliklar ekilganidan keyin, o‘sib chiqadigan begona o‘tlarning, mazkur mahsulotlarini yaxshi o‘sishiga xalaqit bermasligi uchun, bu o‘tlarni olib tashlash jarayoniga, xishova deyiladi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “yopinchiq, parda; ko‘zning xiralashuvi, shabko‘rlik<sup>10</sup>” deb izohlanadi. Mazkur leksema ikkala tomon o‘zbeklari nutqida ikki xil ma‘noda qo‘llaniladi. Shimoliy Afg‘oniston o‘zbeklari nutqida, dehqonchilik mahsulotlari

<sup>6</sup> O‘sha kitob. –Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006.

<sup>7</sup> “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” 5 jildli. –Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006.

<sup>8</sup> O‘sha kitob. –Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006.

<sup>9</sup> Ne‘matjon Hoshimov “Qadimda bog‘lar qanday yaratilgan?”, Toshkent, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti, 2006. 72-bet.

<sup>10</sup> “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” 5 jildli. –Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006.

ichida ko'karib chiqqan begona o'tlarni tozalash jarayoniga nisbatan ishlatilsa, O'zbekistonda yashovchi o'zbeklar nutqida shabko'r inson, yoki parda ma'nolarini ifodalashda ishlatiladi.

**Termoq** - no'xat, paxta kabi o'simliklar pishganidan so'ng, qo'l bilan terilib oladigan jarayoniga nisbatan ishlatiladigan so'z. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "sochilib yoki to'kilib yotgan narsalarni qo'l bilan birma-bir olib to'plamoq, yig'moq<sup>11</sup>" deb izohlanadi. Bu atama ikkala tomon o'zbeklari o'rtasida ham bir xil ma'noda qo'llaniladi, lekin dehqonchilikda termoq deganda asosan paxta, no'xat kabilarni yerdan terib olish tushuniladi.

**Yanchmoq** – bug'doy, arpa kabilarga o'xshash o'simliklar, o'rilganidan keyin uning donini poyasidan ajratish maqsadida bo'lib o'tadigan, dehqonchilikka oid jarayondir. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "o'rilgan g'alla boshloqlarini bosib, urib, ezib, donni ajratib olmoq, bug'doy yanchmoq<sup>12</sup>" deb izohlanadi. Mazkur atama ikkala tomon o'zbeklari nutqida, bir xil talaffuz va bir xil ma'noga ega.

**Qayramoq** – dehqonchilik asboblari o'tmas bo'lib qolganida, maxsus tosh orqali, tezlash (o'tkir qilish) jarayoniga nisbatan ishlatiladigan dehqonchilikka oid leksema. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "tosh yoki boshqa narsaga ishqalab o'tkirlamoq, charxlab, o'tkir, keskir qilmoq<sup>13</sup>" deb izohlanadi. Bu leksema keng ma'noda ko'p narsalarni o'z ichiga qamrab oladi, tor ma'noda asosan dehqonchilik asboblari: bel, ketmon, o'roq kabilardan yaxshi ish olish uchun, o'tkir qilish jarayoni.

**Yaqalamoq** – dehqonlarning yerga suv olish navbati kelganda, suvni boshqalar ochmasligi uchun, navbati tugagunga qadar, suv keladigan ariqni tekshirib turuvchi dehqonga suv yaqalovchi, jarayonga esa yaqalamoq leksemalari ishlatiladi. Mazkur atama "O'zbek tilining izohli lug'ati"da izohlanmagan.

**Bandlamoq** – suvni birinchi ariqdan, ikkinchi ariqqa o'tkazish uchun tuproq bilan birinchi ariqni yo'lini to'sish jarayoniga nisbatan mazkur atama ishlatiladi. Bu leksema "O'zbek tilining izohli lug'ati"da izohlanmagan.

**Choqmoq / chaqmoq** – yong'oq, bodom kabi mevalarning mag'zini po'stidan ajratish uchun, mazkur mevani po'stini olib tashlashga nisbatan bo'lib o'tadigan jarayondir. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "pista, bodom, yong'oq va shu kabi qattiq mevalarni yoki ba'zi ho'l mevalarning danaklarini tishlab yoki biror narsa bilan urib yormoq<sup>14</sup>" deb izohlanadi. Mazkur ikkala tomon o'zbeklari nutqida ham bir xil ma'noda qo'llaniladi.

**Qoqmoq** – tut, o'rik kabi mevalar, pishganida ularning daraxtdan olish maqsadida, silkish yoki yog'och tayog'i bilan urib tushiriladigan jarayonga nisbatan, mazkur leksema maqo'llaniladi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "zarb bilan kiritmoq

(qoziq, mix kabilar haqida)" deb izohlanadi. Mazkur leksemaga oid izoh lug'atnomada keng ma'noda berilganligini kuzatishimiz mumkin.

**Yopmoq** – sabzavot va mevalarning qish faslida, sovuqdan asrash maqsadida, amalga oshiriladiga ish. Bu leksema lug'atnomada izohlanmagan.

<sup>11</sup> "O'zbek tilining izohli lug'ati" 5 jildli. –Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006.

<sup>12</sup> "O'zbek tilining izohli lug'ati" 5 jildli. –Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006.

<sup>13</sup> "O'zbek tilining izohli lug'ati" 5 jildli. –Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006.

<sup>14</sup> O'sha kitob. –Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006.



**Kesmoq** – meva daraxtlari yaxshi hosil berishi uchun, ularning kesish va payvand qilish jarayoni.

**Sug‘urmoq** - kunjit, zira kabi o‘simliklar pishganidan keyin, ularni to‘plash va yanchish maqsadida bo‘lib o‘tadigan jarayon.

Yuqorida keltirilgan, dehqonchilik bilan aloqador bo‘lgan leksemalarning ko‘pchiligi, shimoliy Afg‘oniston va O‘zbekiston o‘zbeklari o‘rtasida, bir xil ma‘no va bir xil talaffuzga ega ekanligini, yaqqol ko‘rishimiz mumkin, biroq shunday leksemalar ham borki, ular faqatgina shimoliy Afg‘oniston o‘zbeklari nutqida qo‘llanilib, O‘zbekistonda yashovchi o‘zbeklar, mazkur atamani ishlatmaydilar. Shu bilan birgalikda yuqorida keltirilgan leksemalar ichida, shunday atamalar ham borki, fan-texnika rivojlanishi natijasida, yuqolib ularning o‘rnini fors-tojik, inglizcha so‘zlar egallamoqda. Masalan, galagov, omoch, buyuntiriq kabi so‘zlar. Hammamizga ma‘lumki o‘shish va rivojlanish tilimizga yangi leksemalarning kirib kelishiga, tilimizdagi atamalarning eskirishiga va yoqolib ketishiga sabab bo‘ladi. Nutqimizdagi sof turkiycha so‘zlarni saqlab qolish uchun, kirib kelayotgan yangi texnologiya asboblari munosib o‘zbekcha muqobilini topib, o‘zbekcha nom bilan aytilishi darkor. Shimoliy Afg‘onistonda millionlab turkiy zamon xalqlar, ayniqsa o‘zbeklar yashab kelmoqda, ma‘lum siyosiy va ijtimoiy omillarga ko‘ra, ular o‘z tili va adabiyotlarini rivojlantirish va nodir til, adabiyot durdonalarini avlodlarga yetkazish uchun kurashmoqdalar. Azaldan turkiy zamon xalqlar o‘z tili va madaniyatini saqlash va uni yuksaltirish yo‘lida tinmay kurashib kelganlar. Mamlakatda davlat rasmiy tillari deb hisoblangan dariy va pushtu tillarini jamiga ona tilim bo‘lmish o‘zbek tili ham Afg‘oniston Islom Respublikasining uchinchi rasmiy tili sifatida tan olindi. O‘zbek tilida yozilgan maqola, she‘r va hikoyalarni gazeta-jurnallarda chiqarishga imkon yaratildi. Biroq hanuzgacha lingvistik jihatdan tahlil qilinmagan, bu sohada Shimoliy Afg‘oniston o‘zbeklari nutqidagi dehqonchilikka oid hech qanday lug‘atnoma yoki kitob chop etilmagan. Shuning uchun men ushbu mavzuni ilmiy o‘rganishni maqsad qilib oldim. Asosiy maqsad shimoliy Afg‘onistonda yashovchi o‘zbeklarining nutqidagi o‘zbekcha so‘zlarni yo‘qolib ketishni oldini olish, ikkinchidan dehqonchilikka oid so‘zlarning barchasini bir joyda to‘plab ularni izohlab mazkur sohaga oid bir lug‘at tuzish va uni Afg‘oniston o‘zbeklari orasida tarqatishdir.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, ildizi va tarixi bir ikki xalqning tilida mushtarak jihatlarning mavjudligi ularning uzoq tarixiga ishora qilsa, ulardagi ayrim farqlar yaqin tarixdagi holatlar bilan belgilanadi. Har ikki mamlakatda yashovchi o‘zbek xalqlarining nutqida qo‘llaniladigan dehqonchilik mahsulotlari, asbob-uskunalar, harakat fellarining nomlari avloddan- avlodga meros bo‘lib keladi.

Ilmiy ishning mazmun mohiyati ham shundaki, mening ilmiy ishim asosida o‘rganilayotgan leksemalar kelajak avlodga meros bo‘lib qolishidir.

Shimoliy Afg‘onistonda mazkur soha bo‘yicha hech qanday ilmiy ish qilinmaganligi uchun, yuqorida keltirilgan atamalarning ko‘pgina qismini, shimoliy Afg‘onistonda istiqomat qiluvchi o‘zbek dehqonlari nutqidan olib yozdid.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” 5 jildli. –Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006.

2. “O`zbek tili so`zligi” Nurulloh Oltoy. Afg`oniston-Javzijon: 2007.
3. Amini, Aziz Ahmad. "Shimoliy Afg`oniston o`zbeklari nutqidagi g`allachilikka oid so`zlarining O`zbek tilining izohli lug`ati` da o`xshash". *Yosh olim* 37 (2020): 175-177.
4. Ahmad, Amini Aziz. "SHIMOLIY AFGONISTON OZBEKLARI NUTQIDA DEHQONCHILIK ASBOBLARI NOMLARI VA ULARNING LISONIY TALQINI." *Fan va innovatsiyalar* 1.B2 (2022): 485-490.
5. Ahmad, Amini Aziz. “BABURNAMA”DA QISHLOQCHILIK SO‘ZLARINING TAVSIRI.” *TASHHRI* 7.12 (2021).
6. Nadim, H. M. (2019). Etnolingvistika va etnografik leksika haqida. *Молодой ученый*, (30), 147-149.
7. Nadim, M. H. (2021). SHIMOLIY AFG ‘ONISTON O ‘ZBEKLARI ETNOGRAFIK LEKSIKASINING TARIXIY-ETIMOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(2), 22-29.
8. Nadim, M. H. (2021). ETHNOCULTURAL SITUATION OF UZBEK PEOPLE IN NORTHERN AFGHANISTAN. *Theoretical & Applied Science*, (6), 490-492.
9. Eshmuminov A. Implementation of maydon’s theory in linguistics //International Scientific Journal Theoretical & Applied Science. – 2022. – T. 5. – №. 102. – C. 468-470.
10. Eshmuminov A. Semantik razmetka tushuncha vosita va usullar //Til va adabiyot ta’limi. – 2022. – T. 1. – №. 10. – C. 34-35.
11. Eshmuminov A. Progressive development of corporate linguistics in the world and Uzbek linguistics //International Scientific Journal Theoretical & Applied Science. – 2021. – T. 10. – №. 102. – C. 439-442.
12. Nurfayzieva D. O. Über die Klassifizierung von Entleihungen in der Germanistik //Экономика и социум. – 2020. – №. 2. – C. 516-521.
13. Нурфайзиева Д. О. РУССКИЕ НЕМЦЫ. ИСТОРИЯ И МИГРАЦИЯ //Актуальные научные исследования в современном мире. – 2020. – №. 11-6. – C. 48-51.
14. Davidov Y. J. KO ‘P MA’NOLILIK HODISASINING YUZAGA KELISH YO‘LLARI //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B2. – C. 500-503.
15. Davidov Y. J. WORD FORMATION PATTERNS IN UZBEK LANGUAGE //International Conference on Agriculture Sciences, Environment, Urban and Rural Development. – 2021. – C. 16-21.
16. Mehmonaliyevich, Toshpulatov Azamat. "REFLECTIONS ABOUT MORPHOLOGICAL EXPRESSERS OF RESPECT AND DISRESPECT CONCEPTS." *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies* 9.2 (2020): 75-81.
17. Toshpulatov Azamat Mehmonaliyevich. “SPECIFIC PRAGMATIC FEATURES TO THE NOUN PHRASE”. *JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*, vol. 8, no. 12, Dec. 2022, pp. 419-22, doi:10.17605/OSF.IO/CEZVA.
18. Toshpulatov Azamat Mehmonaliyevich. “PERSPECTIVES ON THE PRAGMATIC STUDY OF THE RATIO CATEGORY”. *Galaxy International Interdisciplinary*

*Research Journal*, vol. 10, no. 12, Dec. 2022, pp. 1076-80, <https://internationaljournals.co.in/index.php/giirj/article/view/3200>.

19. Boyquziyeva, G. X., and M. M. Jo'rayeva. "SOME FEATURES OF WOMEN'S SOCIAL ACTIVITIES IN UZBEKISTAN." *Open Access Repository* 8.12 (2022): 346-348.
20. Musaev, Odil, et al. "Socio-philosophical interpretations of such concepts as "ethnos" and "nation" as social unit." *International Journal of Advanced Science and Technology* 29.5 (2020): 1936-1944.
21. БОЙКУЗИЕВА, ГХ. "СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКАЯ РОЛЬ ЖЕНЩИН В ГОСУДАРСТВЕННОМ УПРАВЛЕНИИ." *Вопросы политологии* 11.2 (2021): 337-345.